XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

Sirdaryo tumani,"Yoshlik" MFY O'zbekiston ko'chasi 98-uy.tel: 377-10-58, 99 699 1947, 91 103 4549

2024 - yil 7 - fevral VI-73-20-9-128-K/24 Sirdaryo tuman hokimligi

Tuman mahalliy byudjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini ishlatish taklifini tasdiqlash va mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining, Toshkent shahar shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi QK-331-IV-sonli qaroriga asosan tuman byudjetining tuman mahalliy byudjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha Xalq deputatlari Sirdaryo tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tuman hokimligining tuman byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan takliflari, tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiya xulosalari hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi va Soliq inspeksiyasining xulosalari malumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman byudjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini hisobiga shakllangan qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish 1-**ilova**ga muvofiq amalga oshirilishi ma’qullansin.

3. Erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratilgan tashkilotlar

rahbarlariga:

- tuman mahalliy byudjetlarining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini hisobidan ajratilgan mablag‘larning saflanishi va natijadorligi to‘g‘risidagi hisobotlarni Xalq deputatlari tuman Kengashiga taqdim etib borish;

- ajratilgan mablag‘larni tejamli, to‘g‘ri va maqsadli ishlatilishini hamda tegishli qaror va belgilangan ta’lablardan kelib chiqib xarajatlarni amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (Z.Mirzayev) va tuman hokimining iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **B.Mirzaqulov**

Xalq deputatlari Sirdaryo tuman
Kengashining
2024-yil 7-fevraldagi
VI-73-20-9-128-K/24-son qaroriga
1-ilova

Сирдарё туман бюджетининг 2024 йил бошига шаклланган эркин қолдиқ маблағлари ҳисобидан маблағ ажратиладагиган харажатлар ТАКЛИФЛАРИ

млн сўмда

Т/р	Кўрсаткичлар	Маблағ миқдори
	Жами	**4788,0**
1	Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 13 апрелдаги "Бюджет жараёнида фуқароларнинг фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-5072 сонли қарорига асосан, "Ташаббусли бюджет" жамғармасига (30%)	1435,0
2	Туман Маданият бўлимига қарашли 3-сонли "Зиёнур" маданият марказини моддий-техник базасини яхшилаш ва жихозлаш харажатлари учун	180,0
3	Тумандаги "Инсон" ижтимоий хизматлар марказини моддий техник базасини яхшилаш ва махаллалардаги ходимларини хоналарини жихозлаш билан боғлиқ харажатлар учун	150,0
4	Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 5 мартдаги "Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг жамият ҳаётидаги фаол иштирокини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" ПҚ-5020-сонли қарорига асосан, "Аёллар дафтари" жамғармасига ўтказиш учун	100,0
5	Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 июндаги "Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва ҳал этиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ВМ-312 сонли қарорига асосан, "Ёшлар дафтари" жамғармасига ўтказиш учун	100,0

6	Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 28 апрелдаги "Моддий ёрдам ва кўмакка муҳтож оилаларни, хотин-қизлар ва ёшларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ВМ-250 сонли қарори ва ВМ-213-сонли фармонига асосан "Саховат ва кўмак" жамғармасига	80,0
7	Туманда "Обод махалла" дастури доирасида "Навоий" махалласида таъмирлаш,ободонлаштириш ва бошқа ишларни ташкил этишда амалга ошираладиган харажатлар учун	450,0
8	Туманнинг худудидаги М-34 йўли бўйидаги бўш ер майдонига "Буюк ипак йўли" карвонини акс еттирувчи туялар карвони хайкалини ясатиш ва ўрнатиш билан боғлиқ харажатлари учун	400,0
9	Ёшлар ишлари агентлиги Сирдарё туман бўлимига бино сотиб олиш харажатлари учун	400,0
10	Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 июндаги "Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг бюджет ваколатларини кенгайтириш ва маҳаллий бюджет даромадларини шакллантиришдаги масъулиятини ошириш тўғрисида" 3042-сонли қарорига асосан, Туман ҳокимлиги ва Халқ депутутлари туман Кенгаши котибияти ходимлари ва туман Иқтисодиёт ва молия бўлими ҳамда солиқ инспекцияси раҳбарларини бир ойлик лавозим иш ҳақи миқдорида бир марталик мукофотлаш харажатлари учун	182,0
11	Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 2-февралдаги "Қорақалпоғистон Республикасида аҳоли учун муносиб турмуш шароитларини яратиш ва маҳаллалар инфратузилмасини янада яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида" 52-сонли қарорига асосан, Қорақалпоғистон Республикаси Қанликўл туманида Оғир турмуш шароитидаги оилаларга тегишли уй-жойларнинг том қисмини таъмирлаш (ёпиш) ҳамда яшаш учун яроқсиз ва авария ҳолатидаги уй-жойларни янгидан қуриш ишлари билан боғлиқ харажатлар учун	400,0

12	Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 19.05.2022 йилдаги 243-F-сон фарсойиши ижроси бўйича Сирдарё тумани "Хазина" МФЙ ҳудудидаги "ВЖД" хўжаликлараро коллектори муҳофазаси ҳудудининг пиёдалар йўлакларини барпо этиш бўйича бажарилган ишга нисбатан қолдиқ маблағ	90,0
13	2020 йил 25 декабр куни Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев раҳбарлигида Ёшлар билан ўтказилган Ўзбекистон ёшлари форумининг 100-сон баённида ҳамда Ўзбекистон Республикаси таълим муоссасаларига ўқишга қабул қилиш бўйича Давлат камиссия мажлисининг баённига асосан маданият ва санат сохасида ўқиётган иқтидорли ёшларни тўлов кантракт пулларини тўлаб бериш харажатлари учун	24,7
14	2021 йил 30 декабрдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони "Республикада кўкаламзорлаштириш ишларини жадаллаштириш, дарахтлар муҳофазасини янада самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида" 46-сонли фармонига асосан кўкаламзорлаштириш (кўчат екиш) билан боғлиқ харажатлар учун	180,0
15	Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясининг 09.05.2023 йилдаги 07-759 сон хатига асосан, туман ташкилий-кадрлар гуруҳи раҳбарларини моддий рағбатлантириш харажатлари учун	16,3
16	Сирдарё туманлараро иқтисодий судининг 2023 йил 25 декабрдаги 4-1202-2302/1371 сонли иши бўйича Сирдарё туман Камбағалликни қисқартириш ва бандликга кўмаклашиш бўлимининг "Худудий электр тармоқлари" АЖ корхонасига МФЙ биноларининг электр-энергиядан юзага келган қарздорликни тўлаш харажатлари учун	300,0
17	Сирдарё туманлараро иқтисодий судининг 2023 йил 26 октябрдаги хал қилув қарорига ва 2023 йил 27 ноябрдаги 4-1202-2302/1258-сонли ижро варақасига асосан, Ўзбекистон Республикаси Миллий Гвардияси Сирдарё вилоят қўриқлаш бошқармасига, Сирдарё туман ҳокимлигининг қарздорлигини тўлаш харажатлари учун	300,0